

**Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida
ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy
Nizom**

Mazkur uslubiy Nizom xizmatlar sohasidagi statistik hisobni yanada takomillashtirish hamda yangi xizmat turlarini hisobga olgan holda xizmatlar sohasi bozorining, qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarni qo'shgan holdagi holati to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini shakllantirish tartibini belgilaydi.

Ushbu uslubiy Nizomning maqsadi xizmatlar sohasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda xalqaro darajada taqqoslashni ta'minlashdan iborat.

Uslubiy Nizomni ishlab chiqishda, xizmatlar sohasidagi, elektron tijorat sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, halqaro statistika tashkilotlarining tavsiyalari, Milliy hisoblar tizimi tavsiflari va MDH Statistika qo'mitasi tavsiyalaridan foydalanildi.

Mazkur uslubiy Nizom davlat statistika organlari tomonidan xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlari va tumanlari kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar iste'molchilarining holatga o'zgartirish yuzasidan ishlab chiqaruvchilarga murojaati natijasidagi o'zgarishlar quyida keltirilgan turli shakllarda bo'lishi mumkin:

iste'mol tovarlari holatiga o'zgarishlar (transportirovka, tozalash, ta'mirlash yoki o'zgarishning boshqa turlari);

alohida shaxslarning jismoniy holatiga o'zgarishlar (masalan, terapevtik yoki jarrohlik muolajalari bilan ta'minlaydi, tashqi ko'rinishni yaxshilaydi);

alohida shaxslarning intellektual holatiga o'zgarishlar (ta'lim, axborotlar, maslahatlar, ko'ngilochar yoki shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etadi).

O'zgarishlar vaqtinchalik yoki doimiy bo'lishi mumkin.

2. Ayirboshlash bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, bir institutsional birlik bilimlar zaxirasiga ega bo'lgan tovarlar, mahsulotlar, ayrim xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarga bo'lgan egalik huquqini bir institutsional birlikdan boshqasiga o'tkazilishida yordam bergan paytda yuzaga keladi.

Ayirboshlash bilan bog'liq xizmatlar, ulgurji va chakana savdo hamda moliyaviy muassasalar tomonidan taqdim etiladi.

Xizmatning o'ziga xos xususiyati bo'lib, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

3. Bilimlar zaxirasiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, iste'molchilar bir necha marotaba foydalanishi mumkin bo'lgan, axborotlarni taqdim etish, saqlash va tarqatish, maslahatlar va ko'ngilochar o'yinlar, shu jumladan umumiy va maxsus axborotlar, yangiliklar, maslahatchilarning ma'ruzalari, kompyuter dasturlari, kinofilmlar, musiqa va boshqalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq holda ish olib boradilar.

Ushbu xizmatlar qatoriga tovarlarning moddiy xususiyatlari ham xos bo'lishi mumkin (masalan, qog'oz yoki elektron shaklda).

4. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi..

Nobozor ishlab chiqarilgan xizmatlarga, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan narxlar mavjud bo'lmagan sharoitlarda (bepul asosda) iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi, ular ijtimoiy yo'naltirilgan hisoblanadi va har qanday darajadagi byudjet mablag'lari yoki byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, shuningdek, jamoat tashkilotlari jamg'armalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan to'lanadi. Masalan, nobozor xizmatlarga ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, mudofaa va boshqa sohalarda bepul xizmatlar kiradi.

2-bob. Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlarning statistik hisobi va ularning hajmini shakllantirish

5. Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi, bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

6. Ma’lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi, iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Iste’molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, shu jumladan, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmagan bo‘lsa), xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mning belgilangan kursi bo‘yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo‘yicha aniqlanadi.

Elektron to‘lovlar – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish.

Elektron pullar – O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

7. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz, hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi..

8. Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarni tasniflash, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o‘rinlarda MST deb ataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

9. Bozor xizmatlari hajmi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020-yil 27-avgustdagi 73-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil (kengaytirilgan) ro‘yxati”ga muvofiq shakllantiriladi.

10. Ko'rsatilgan xizmatlarning oylik hajmi quyidagilarga asosan shakllantiriladi:

- a) yirik tijorat korxonalari bo'yicha statistika hisoboti;
- b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo'yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;
- v) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;
- g) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish sxemasi uslubiy Nizomning 1- ilovasida ko'rsatilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot bo'yicha aniqlashtirilgan ma'lumotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda foydalaniladi.

11. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari chorakning oxirgi oyida o'tkazilishi munosabati bilan, joriy chorakning tanlanma kuzatuv ma'lumotlari olingunga qadar kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning o'rtacha oylik hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{mn} = (V_{mn-1} / 3) * K_c$$

bu yerda, V_{mn-1} – to'g'rilash koeffitsiyentini hisobga olgan holdagi jami to'plamga joriy etilgan oldingi chorak uchun tanlanma kuzatuv ma'lumotlari;

K_s – anketaga kiritilgan o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan iqtisodiy holatning “yaxshilanish”i yoki “yomonlashish”ishini baholovchi ko'rsatkichlar asosida hisoblangan to'g'rilash koeffitsiyenti.

12. To'g'rilash koeffitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_c = \frac{\bar{I}_n}{100} * D_n$$

bu yerda, D_n – yaqin uch oyda yaxshilanish istiqboliga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi;

$\bar{I}_n$ – avvalgi uch yil uchun joriy chorakda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘tgan chorakka nisbatan o‘zgarish indeksini o‘rtacha miqdori (foizlarda) quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\bar{I}_{n\ kv} = \sqrt[3]{It_1 * It_2 * It_3}$$

bu yerda, It_1, It_2, It_3 – avvalgi uch yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar ko‘rsatgan xizmatlari hajmining joriy chorakning o‘tgan chorakka nisbatan o‘zgarish indeksi.

To‘g‘rilash koeffitsiyentini hisoblash namunasi uslubiy Nizomning 2- ilovasida keltirilgan.

13. Chorakning oxirgi oyida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$V_3 = (V_{ln} + V_{mn}) - V_1 - V_2$$

bu yerda, V_3 – chorakning oxirgi oyida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_1, V_2 – hisobot choragining birinchi va ikkinchi oylarida ko‘rsatilgan xizmatlarning hisoblangan hajmi.

14. Hisobot yili davomida tugatilgan xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash ushbu tashkilotlarning o‘tgan yilda ko‘rsatgan xizmatlari hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Hisobot yilida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_{ln} = (V_{lpr} / (V_{mpr} - V_{lpr})) * V_{mn}$$

bu yerda, V_{ln} – hisobot yilining n choragida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{lpr} – hisobot yilida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan o‘tgan yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{mpr} – o‘tgan yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{mn} – butun to‘plamga joriy qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining n chorak uchun o‘tkazilgan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari.

15. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning oylik hajmi choraklik tanlanma kuzatuvlari asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{mtn} = \frac{V_{ln} + V_{mn}}{3}$$

bu yerda, V_{mtn} – tugatilgan korxonalar hajmini xisobga olgan holda, kichik korxona va mikrofirmalarning n chorak uchun tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha hisoblangan o'rtacha oylik xizmatlar hajmi.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning choraklik ko'rsatilgan xizmatlar hajmlarini hisoblash namunasi uslubiy Nizomning 3- ilovasida keltirilgan.

16. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning oylik hajmlarini taqsimlash o'tgan yildagi yillik hisobot hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga asosan ularning kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmlaridagi ulushi bo'yicha amalga oshiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmlarini hisoblash namunasi uslubiy Nizomning 4- ilovasida keltirilgan.

17. Fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning oylik hajmlari o'tgan yil uchun aniqlashtirilgan (yillik) ma'lumotlar asosida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda baholanadi.

18. Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, har chorakning oxirgi oyida muntazam ravishda o'tkaziladigan tanlanma statistika kuzatuvlari natijalari asosida baholanadi.

Tanlanma statistika kuzatuvini o'tkazishdan maqsad, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish va olingan ma'lumotlardan har bir hudud va respublika bo'yicha xizmatlar hajmini baholash uchun foydalanish hisoblanadi

19. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini baholash uchun qonun hujjatlariga

muvofoiq xizmatlar sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, ro'yxatdan o'tgan (ya'ni, ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan) jismoniy shaxslar soni to'g'risidagi soliq organlarining ma'lumotlaridan foydalaniladi. Shu bilan birga, kuzatuv o'tkaziladigan joylar va xizmat ko'rsatish obyektlarida (DSQ organlarida ro'yxatga olingan) faoliyat ko'rsatuvchi barcha shaxslarning 30 foizidan ortiq bo'lmagan qismi qamrab olinadi.

20. Aholining umumiy sonidagi ulushi nuqtai nazaridan uning yetarli darajadagi tanlovning minimal hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_n = \frac{t(2) * w(1 - w)}{DELTA} * Nt$$

bu yerda:

P_p – vakillik namunasining minimal hajmi (so'rov o'tkaziladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni);

$DELTA$ – tanlov reprezentativligida ruxsat etilgan maksimal xatolik;

t - namuna tanlovi xatoligining miqdori;

$w(1 - w)$ - taqsimotning o'zgaruvchanlik darajasi.

N_i - yakka tartibdagi tadbirkorlarning umumiy soni.

Xizmat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar sonining minimal namunaviy hajmini hisoblash uslubiy Nizomning 6- ilovasida keltirilgan

21. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi har bir xizmat turi bo'yicha quyidagi formula yordamida baholanadi:

$$V_{ip} = V_{iz} + V_{io}$$

bu yerda, V_{ip} – yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

Tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan va bo'lmagan jismoniy shaxslar soni aniqlanadi.

Ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan (ro'yxatdan o'tgan) va ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan (ro'yxatdan o'tmagan) jismoniy shaxslar bo'yicha xizmatlar hajmini baholash tegishli ravishda quyidagi formulalar bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Viz = Vsiz * Liz$$

$$Vio = Vsio * Lio$$

bu yerda, **Viz**, **Vio** – soliq organlarida ro'yxatdan o'tgan va o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi;

Vsiz, **Vsio** – kuzatuv bo'yicha ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan va bo'lmagan bitta jismoniy shaxsga to'g'ri keladigan o'rtacha xizmatlar hajmi;

Liz, **Lio** – ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan va bo'lmagan jismoniy shaxslar soni.

Lf – hisobot davrida xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jami jismoniy shaxslar soni.

$$Lf = \frac{L_{iz}}{W_{iz}} * 100\%$$

Wiz – soliq organlari ma'lumotlari bo'yicha hisobot davrida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarning ulushi.

$$Lio = Lf - Liz$$

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar sonini hisoblash (tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha) namunasi uslubiy Nizomning 5- ilovasida keltirilgan.

22. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmi xizmat (faoliyat) turlari bo'yicha ma'lumotlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

23. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotlar yilda bir marta yirik tijorat korxonalari, notijorat tashkilotlar, qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha hisobot yilida statistika hisobotlari ma'lumotlari hamda hisobot davrida tugatilganlar, kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyatini va xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini baholash asosida shakllantiriladi.

24. Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 1- maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi

PQ-4702- son qaroriga muvofiq, hududlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida shakllantiriladi.

25. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman va shaharlari kesimida shakllantiriladi.

26. Tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) mos davr uchun yirik tijorat korxonalari bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo'yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;

v) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli davlat statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

g) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmlarini taqsimlash o'tgan yildagi yillik hisobot hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga asosan, ularning kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmlaridagi ulushi bo'yicha amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmlari o'tgan yil uchun aniqlashtirilgan (yillik) ma'lumotlar asosida, ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda baholanadi.

27. Ayrim turdagi xizmatlar uchun tuman va shaharlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini shakllantirish mumkin bo'lmagan hollarda, Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman va shaharlari kesimida o'rtacha doimiy aholi soni), Statistik registrnlarni yuritish va tizimli xizmat

ko'rsatish boshqarmasi (mos davr uchun faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni), shuningdek, tegishli vazirlik va idoralarning ma'muriy manba ma'lumotlaridan hajmni hisoblashda foydalaniladi.

3-bob. Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi indeksini joriy va taqqoslama narxlarda aniqlash

28. Fizik hajmi indeksini hisoblash uchun axborot manbai bo'lib, tashkilotlar (yuridik shaxslar) tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlarining birlamchi statistik ma'lumotlari, shuningdek, xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvidan olingan ekstrapolyatsiya qilingan birlamchi statistik ma'lumotlaridir.

Xizmatlar hajmi dinamikasini tahlil qilish tizimida indeks usuli asosiy usul hisoblanadi.

Xizmatlar hajmi dinamikasini aniqlash uchun ikkita indeks qo'llaniladi:

xizmatlarning qiymat hajmi indeksi (joriy narxlarda);

xizmatlarning fizik hajmi indeksi (taqqoslama narxlarda).

29. Joriy narxlarda xizmatlarning qiymat hajmi indeksi, hisobot davridagi (yoki taqqoslanayotgan boshqa davrdagi) xizmatlar hajmi yig'indisini bazis davridagi xizmatlar hajmi yig'indisiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{vt} = \frac{V_{op}}{V_{bp}} * 100$$

bu yerda, I_{vt} – joriy narxlarda xizmatlarning qiymat hajmi indeksi;

V_{on} – hisobot davrida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yig'indisi;

V_{bp} – bazis davrida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yig'indisi.

Joriy narxlarda xizmatlarning qiymat hajmi indeksi, xizmatlar hajmini ikkita omil hisobiga o'zgarishini ifodalaydi – narxlar o'zgarishi va ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining o'zgarishi.

30. Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi o'zgarishining miqdoriy xususiyatlarini xizmatlarning fizik hajmi indeksi ko'rsatib beradi.

Xizmatlarning fizik hajmi indeksini hisoblash uchun, hisobot va bazis davrlarining taqqoslama narxlardagi xizmatlar hajmlari solishtiriladi (odatda bazis davrdagi narxlar bo'yicha).

Hisobot davrining taqqoslama narxlardagi xizmatlar hajmi bazis davri narxlarida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{os} = \frac{V_{on}}{I} * 100$$

bu yerda, V_{os} – hisobot davrining taqqoslama narxlardagi xizmatlar hajmi yig'indisi;

I – xizmatlar bo'yicha narx va tariflar indeksi.

Umumiy xizmatlar hajmini bazis davri narxlari bo'yicha qayta hisoblash uchun, xizmatlarning alohida turlari bo'yicha narxlar va tariflar indekslaridan kelib chiqqan holda hisoblangan xizmatlarning narx va tariflar yig'ma indeksidan (deflyator) foydalaniladi.

31. Xizmatlarning har oylik fizik hajmi indekslarini hisoblashda, yil boshidan ma'lum davr uchun o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan alohida xizmat turlariga narxlar va tariflar indekslaridan foydalaniladi.

Joriy va taqqoslama narxlardagi ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajm indeksini hisoblash namunasi uslubiy Nizomning 7- ilovasida keltirilgan.

4-bob. Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobini yuritishning ma'lumotlar manbai

32. Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining jami hajmi quyidagilar asosida shakllanadi:

a) oylik ma'lumotlar:

12-korxona shakli “Tashkilot faoliyati to'g'risida hisobot” – tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar taqdim etadilar (O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan ro'yxat bo'yicha);

12-korxona (xizmat) (12-korxona shakliga ilova) “Hududiy alohida bo'linmalarga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida hisobot” - yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi hududiy alohida bo'linmalarga ega bo'lgan tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi tashkilotlaridan tashqari) hamda

notijorat tashkilotlar taqdim etadilar (O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan ro‘yxat bo‘yicha);

b) choraklik ma’lumotlar:

kichik tadbirkorlik subyektlarining kuzatuv natijalari:

4-kb savolnoma “Mikrofirma va kichik korxonaning faoliyati to‘g‘risida savolnoma” – mikrofirma va kichik korxonalar savolnomada kuzatuv o‘tkazilayotgan yilida bir marta ishtirok etadilar – (Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan ro‘yxat bo‘yicha);

4-kb (qurilish, savdo, xizmat) “Mikrofirma va kichik korxonaning faoliyati to‘g‘risida savolnoma”da mikrofirmalar va kichik korxonalar (Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan belgilangan ro‘yxat bo‘yicha) kuzatilayotgan davrning har choragida ishtirok etadilar;

4-xizmat (jsh) “Bozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi jismoniy shaxslar bo‘yicha so‘rovnoma” statistik so‘rovnomasi bo‘yicha tanlanma kuzatuv natijalarini baholash – kuzatiladigan birlik xizmat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar hisoblanadi;

4-tr (yat) “Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyati to‘g‘risida so‘rovnoma” statistik so‘rovnomasi bo‘yicha tanlanma kuzatuv natijalarini baholash – kuzatiladigan birlik tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi;

v) yillik ma’lumotlar:

1-xizmat shakli “Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar to‘g‘risida hisobot” – yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadilar (kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo‘jaliklari va notijorat tashkilotlardan tashqari);

1-kb shakli “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” – mikrofirma va kichik korxonalar taqdim etadilar;

1-notijorat shakli “Notijorat tashkilotning faoliyati to‘g‘risida hisobot” – notijorat tashkilotlar taqdim etadilar (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va uy-joy mulkdorlarining shirkatlari (UJMSH)dan tashqari);

1-nnt shakli “Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to‘g‘risida hisobot” – tashkiliy-huquqiy shakli, jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa, uyushma (ittifoq) bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro va chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxona va filiallari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari taqdim etadilar;

1-fx shakli “Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” – fermer xo‘jaliklari taqdim etadilar;

1-kom (shirkat) shakli “Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to‘g‘risida hisobot” – ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi yuridik shaxslar taqdim etadilar.

5-bob. Statistik hisobotlarda aks ettirilgan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar ko‘rsatkichlarini tahlil qilish

33. Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlarning umumiy hajmi barcha turdagi korxonalar va tashkilotlarning hisobot va tanlanma kuzatuvlari asosida shakllanadi.

34. Korxonalarning statistik kuzatuvlarini o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274- son qaroriga muvofiq tizimli va doimiy yangilab boriladigan Korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registri asos bo‘lib xizmat qiladi.

35. Yillik ma’lumotlarni shakllantirishda, “yanvar-dekabr” hisobot davri uchun **12-korxona shakli** va **12-korxona (xizmat)** (12-korxona shakliga ilova) oylik statistik hisobotlari asosida olingan tezkor ma’lumotlar tegishli yil uchun **1-xizmat shakli** yillik statistik hisobot ma’lumotlari bilan taqqoslanadi.

36. **1-xizmat shakli** yillik statistik hisobotida aks ettirilgan ayrim xizmat turlari hajmining ko‘rsatkichlari “yanvar-dekabr” hisobot davri uchun **4-aloqa shakli** “Aloqa vositalari va xizmatlari to‘g‘risida hisobot” shakli bo‘yicha choraklik hisobotida aloqa xizmatlari va **1-avto shakli** “Avtomobil transporti va xo‘jalik avtomobil yo‘llari uzunligi to‘g‘risida hisobot”, **1-temir yo‘l (umumfoydalanadigan) shakli** “Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transporti xizmatlari to‘g‘risida hisobot”, **1-havo yo‘llari shakli** “Umumiy foydalanishdagi havo transporti xizmatlari to‘g‘risida hisobot”, **1-quvur yo‘li shakli** “Quvur yo‘li transporti xizmatlari to‘g‘risida hisobot” shakllari bo‘yicha yillik hisobotlarda transport turlari bo‘yicha transport xizmatlari aks ettirilgan ma’lumotlar bilan taqqoslanadi.

37. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning muhim manbai soliq organlarining ma’muriy ma’lumotlari hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning tanlanma kuzatuvidan olingan ma’lumotlarning ishonchliligi va obyektivligini

tekshirish maqsadida boshqa statistik ma'lumotlar, ya'ni uy xo'jaliklarining kuzatuvi, tarmoq statistikasining kuzatuvlari va h.k. bilan taqqoslanishi kerak.

Kuzatuv davrida jamlanma ma'lumotlarning o'zgarishini taqqoslash uchun mintaqalar (tumanlar) o'rtasida kuzatuv natijalaridan foydalanish zarur.

6-bob. Mavsumiy o'zgarishlarni o'tkazish usuli

38. Mavsumiylik darajasiga moslashtirilgan ko'rsatkichlar statistik kuzatuvlar uchun standart vosita bo'lib, asosiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modellari va tendensiyalarini aniqlash hamda o'lchashga, ushbu jarayonlarda yuz beradigan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi.

Mavsumiy o'zgarishlarni o'tkazish uchun TRAMO/SEATS usuli yordamida Yevropa statistika tizimi ekspertlarining rahbarligi ostida ishlab chiqilgan "Demetra+" dasturiy ta'minotidan foydalaniladi.

Mavsumiy o'zgarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

dastlabki sharoitlarni baholash;

mavsumiy o'zgarish;

natijalarni tahlil qilish;

foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish.

39. Mavsumiy o'zgarish, dastlabki ma'lumotlarni baholash va "Demetra+" dasturida ishlash uchun ma'lumotlarni belgilangan formatga o'tkazilishi bilan boshlanadi. Davriy qatorlarning sifati birlamchi ma'lumotlarning to'g'riligiga va hisoblangan ko'rsatkichlarni aniqlash uslubiyati belgilangan mezonlarga muvofiqligiga bog'liq.

40. Diskret choraklik davriy qatorlarni tuzishda kamida to'rt yillik ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Hisoblashda diskret chorakda o'tgan yilning to'rtinchi choragiga nisbatan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini o'zgarish indeksidan foydalanish kerak.

Mavsumiy o'zgarishlarning maqsadi davriy qatorlardan mavsumiy o'zgarishlarni ajratib olishdan iborat bo'lib, boshlang'ich ma'lumotlarda mavsumiylikni mavjudligi muhimdir.

41. Taqvim effektlari kalendar bilan bog'liq bo'lgan har qanday iqtisodiy hodisalar bo'lib, ular davriy qatorlarning mavsumiy o'zgarishini bajarishdan oldin olib tashlanadi. Kabisa yilining effekti, turli xil ish kunlari, ko'chiriladigan bayramlar muayyan vaqt davomida ish faoliyati darajasiga ta'sir qiladi.

42. Dasturiy ta'minotda "Taqvim" modulining mavjudligi barcha bayramlar, ko'chiriladigan ish va dam olish kunlari hisobga olingan kalendar yaratish imkonini beradi.

Dasturda ishlash uchun o'zgartiriladigan ko'rsatkichlarni "Excel" fayli ko'rinishida tayyorlash kerak. Vertikal ravishda tuzilgan "Excel" fayli formati quyidagicha bo'lishi kerak:

barcha varaqlarda A1 yacheykasi bo'sh bo'lishi va A ustunda kuzatuvlarning asos qilib olingan sanalari qayd etilishi kerak;

birinchi qator, ya'ni V1, S1 va boshqa yacheykalar ma'lum bir qator nomini o'z ichiga olishi kerak; varaqning ichida har bir qatorning nomi noyob bo'lishi kerak;

qatorlar nomlanishidan keyingi yacheykalar davriy qatorlarni o'z ichiga oladi;

o'tkazib yuborilgan ma'lumotlar bo'sh yacheyka bilan belgilanadi.

43. "Demetra+" dasturiy ta'minoti fayldagi qatorlarni varaqning nomi va har bir qator nomidan belgilaydi.

TRAMO/SEATS usuli yordamida qatorlarni asosiy tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin: mavsumiy, trend-siklli, nomuntazam, shuningdek, oraliq tarkibiy qismlar. Ushbu tarkibiy qismlar qo'shish yoki ko'paytirish orqali boshlang'ich qatorga birlashtiriladi. Tarkibiy qismlarni aniqlab bo'lgach, mavsumiy o'zgarish mavsumiy komponentni manba ma'lumotlaridan o'chirib tashlab, mavsumiy o'zgarish qatorlarini hosil qiladi.

44. Mavsumiy komponent o'z ichiga mavsumiy va kalendar effektlarni oladi. Komponentning muddati, yo'nalishi va amplitudasi asosan barqarordir.

Nomuntazam komponent bu – manba ma'lumotlaridan mavsumiy va trend-sikl komponentlarini olib tashlangandan keyin qolgan tarkibiy qismdir. Bundan tashqari, har doim tasodifiy bo'lmagan xatolar ham mavjud bo'lishi mumkin. Oraliq komponenti qisqa muddatli (oraliq) o'zgarishlar bilan ifodalanadi. Tarkibiy qismlar baholangandan so'ng nomuntazam va oraliq tarkibiy qismlarni qo'shish mumkin.

45. Trend – siklli komponent uzoq muddatli hamda o'rta muddatli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu ikki o'zgarishlardan trend uzoq muddatli, ya'ni bir necha o'n yillardagi tarkibiy o'zgarishlar qatorlarning yashirin darajasini ifodalaydi va odatda inflyatsiya, texnologik o'zgarish yoki umumiy iqtisodiy rivojlanish natijasidir. Boshqa tarafdin, sikl komponenti, uzoq muddatli trend atrofida nisbatan tekis o'zgarishlar bilan tavsiflanadi.

46. Taqvimiy o'zgartirishning maqsadi kun, (ish va dam olish kunlari soni) oy yoki chorakning davomiyligi va tarkibidan qat'iy nazar mavsumiy o'zgartirilgan qatorlarni olishdir.

Taqvim komponenti davrdan to davrgacha bo'lgan turli xil kalendar belgilar bilan bog'liq effektlarni o'z ichiga oladi. Taqvim effektlari mavsumiy va nomavsumiyga bo'linadi. "Nomavsumiy" qismi taqvim komponentiga kiritiladi va alohida ko'rib chiqiladi, "mavsumiy" qism mavsumiy komponentda hisobga olinadi. Foydalangan kalendar effektlari operatsion yoki ish kuni effektlarini o'z ichiga oladi.

47. Operatsion kunning effekti chorakda haftaning har bir kunini muayyan chorak davomida hafta ichidagi standart tarkibi bilan qiyoslaydi. Ish kunining ta'siri chorakda ish kunlari va dam olish kunlari o'rtasidagi farqni o'z ichiga oladi.

48. Bayramlar ish kunlari hisoblanmaydi. Dam olish kunlari soni bayramlar soniga qarab ko'payadi va ish kunlari soni mos ravishda kamayadi.

Ish kunlarining ta'siri ish kunlarining guruhini (dushanbadan jumagacha) tenglama orqali taqqoslaydigan yagona regressor tomonidan tutiladi:

Ish kunlari = haftaning kunlar soni – dam olish kunlari soni.

5/2 omili ish kunlarining regressini yetti kunlik haftaning standart tarkibida nolga tenglashtiradi. Haftaning standart haftasidan boshlab, agar ish kuni noldan katta bo'lsa, regressorda aks etadi, bu esa standart haftaga qaraganda bir oyda yoki chorakda ko'proq t ish kuni borligini bildiradi.

49. Harakatlanuvchi bayramlarning ta'siri yildan-yilga o'zgarib turadigan mamlakatda diniy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar bilan bog'liq.

50. Kabisa yilining samarasi fevral oyida qo'shimcha bir kunni hisobga oladi, bu esa, to'rt yillik siklni kabisa yili birinchi choragining yuqori nuqtasi bilan yuzaga keltiradi (agar kabisa yilining fevral oyi bo'lsa, u holda "0,75" bo'ladi, aks holda "-0,25", kabisa yili bo'lmagan yillarda fevral oyi "0"ga teng). Kabisa yilining regressori to'rt yil mobaynida kabisa yili fevral oyining yuqori nuqtasi bilan to'rt yillik deterministik siklni ifodalaydi, kabisa yili samarasi kelgusida kabisa yili bo'lmagan yillarda salbiy samaralar bilan to'liq qoplanadi.

51. Mavsumiy o'zgarishlarni maqsadlari uchun TRAMO dastlabki davriy qatorlarning ma'lumotlarini o'zgartirishda SEATSDan foydalaniladi.

TRAMO foydalanadigan matematik formula:

$$Y_t = \beta * X_t + Z_t,$$

bu yerda, Y_t – mavsumiylikdagi xatolar;

β – koeffitsiyent (tizim tomonidan avtomatik ravishda aniqlanadi);

X_t - kalendar effekti va chiqarib yuborilgan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilar;

Z_t – ko‘rsatkichlar – tizim avtomatik ravishda tanlaydi.

52. Mavsumiy - to‘g‘rilangan ma’lumotlarning taqdimoti foydalanuvchilarning ehtiyojlariga bog‘liq. Dastlabki bosqichda, nashrda asl (boshlang‘ich) va mavsumiy-to‘g‘rilangan ma’lumotlar bir vaqtning o‘zida matn va jadval ko‘rinishida ko‘rsatiladi.

53. Mavsumiy o‘zgartirilgan ma’lumotlarni birinchi marta ko‘rib chiqiladigan sanasi kalendar yilining boshida, o‘zgartirilmagan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqilishidan kamida uch yil oldin belgilanadi. Ushbu sana shaffoflik sababli to‘rt yilgacha muddatga o‘rnatiladi. Oldingi davrlar uchun mavsumiy omillar muzlatilib qo‘yiladi.

7-bob. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar statistik hisobining o‘ziga xos xususiyatlari

54. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning statistik hisobi umumiy xizmatlar hajmida ustunlikka ega bo‘lgan xizmat turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 27-avgustdagi 73-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil (kengaytirilgan) ro‘yxati”ga muvofiq amalga oshiriladi.

Xizmatlarning umumiy hajmida ustun bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar ro‘yxati 8- ilovada keltirilgan.

55. Amaldagi narxlarda **aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini** ishlab chiqarish mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

56. **Moliyaviy xizmatlar** Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy

vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Amaldagi narxlarda moliyaviy xizmatlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida) hisobga olinadi. Chet el valyutasida kelib tushadigan foizli daromadlar hisobot davridagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli kursi bo'yicha hisob-kitob qilinadi va so'mda aks ettiriladi.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari hajmi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumini hamda qayta sug'urta qilish bo'yicha qabul qilingan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlarini o'z ichiga oladi. Bunda sug'urtalovchilarga qayta sug'urta qilish uchun berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari chiqarib tashlanadi.

57. Amaldagi narxlarda **transport xizmatlarining** yalpi ishlab chiqarish hajmi transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida pochta va kur'erlik faoliyati bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi ham hisobga olinadi.

Quvur transporti sohasi faoliyati bo'yicha asosiy faoliyatdan xizmatlar hajmiga quvur orqali quyilgan neft va gaz mahsulotlarining qiymati qo'shilmaydi.

Hududlar bo'yicha transport yalpi ishlab chiqarilgan hajmi temir yo'l, havo va quvur transportida tashish xizmatlarining hajmini taqsimlashning imkoni yo'qligi sababli faqatgina avtomobil transporti bo'yicha aniqlanadi.

Yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi transport tashkilotlari xizmatlari hajmi yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarda imtiyozli kartalar va jetonlar bo'yicha olinadigan daromadlarni ham o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini to'liq aks ettirish uchun xizmatlar hajmida O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan imtiyozlarni qoplash uchun xarajatlar miqdori ham (QQS, aksiz va shunga o'xshash majburiy to'lovlarsiz) hisobga olinadi.

Avtomobil tashuvlari faoliyati sohasida tashkilotning o'z ehtiyojlari uchun bajarilgan yuk tashuvlarining (masalan, o'z mahsulotlarini o'zining

chakana savdo tarmog'iga yetkazish, ichki xo'jalik, zavod ichi, obyekt ichida va shunga o'xshash yuk tashuvlari) qiymati aks ettirilmaydi.

58. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish sohasida quyidagilar aks ettiriladi:

qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va h.k.) tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymati.

59. Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlarining yalpi ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxleri orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Motorli transport vositalari va motosikllarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari qiymati xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushum miqdorida belgilanadi.

60. Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

Uy-joy fondidan foydalanish va saqlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi – moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar uy-joy fondidan foydalanish, saqlash va joriy ta'mirlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati (yashash hududlaridan, masalan, umumiy yotoqxonalardan foydalanganlik uchun to'lov summalarini ham qo'shgan holda).

61. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim va elektron shaklda sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatish qiymati aks ettiriladi.

62. Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy

ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

63. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

8-bob. Qishloq joylarida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

64. Shahar va qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda, statistika organlari tomonidan, "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, shaharlar, shaharchalar, ovullarni tuzish, tugatish, chegaralarini o'zgartirish, shuningdek, aholi punktlarini shaharlar va shaharchalar turkumiga kiritish masalalari bo'yicha davlat hokimiyati organlarining e'lon qilingan qarorlaridan foydalaniladi.

65. Ushbu uslubiy Nizomning 56- bandida ko'rsatilgan xizmatlardan tashqari barcha xizmat turlari, xizmat ko'rsatuvchi obyektlarning joylashgan joyi bo'yicha aniqlanadi.

Respublika, viloyat va tuman bo'ysunuvidagi shaharlar, shuningdek, shaharchalarda joylashgan statsionar obyektlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar shahar joylariga tegishli xizmatlar hisoblanadi, ovullar, qishloqlar, qishloq mahallalari, qishloq joylaridagi yakka tartibdagi qurilishlar asosida barpo etilayotgan massivlarda va shu kabi joylarda joylashgan obyektlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar – qishloq joylariga tegishli hisoblanadi.

66. Qishloq joylarida ko'rsatilgan avtomobil transporti, aloqa, savdo xizmatlari hajmlari to'g'risida to'liq va sifatli ma'lumotlarni shakllantirish uchun quyidagi tushunchalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Qishloq joylaridagi avtomobil transporti xizmatlari bu – shaharlar va shaharchalardan qishloq va ovullar hududiga qatnovchi transport vositalari tomonidan yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi bo'lib, ular qishloq joylarida amalga oshirilgan xizmatlar hajmiga qo'shiladi.

Qishloq joylaridagi avtomobil transporti xizmatlari shahar atrofi va shaharlararo qatnovlar bo'yicha yuklar va yo'lovchilarni tashishni o'z ichiga oladi:

shahar atrofi tashuvlariga, shahar va shaharchalar chegaralari hududidan ellik kilometr masofagacha uzoqlikka amalga oshiriladigan tashuvlar kiradi;

shaharlararo tashuvlarga, shahar va shaharchalar chegaralari hududidan ellik kilometrdan ko'proq masofaga hamda bosib o'tiladigan yo'lining uzunligidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining ikki va undan ortiq viloyatlari hududida amalga oshiriladigan tashuvlar kiradi.

Qishloq joylaridagi aloqa xizmatlari, telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanuvchi abonentning pochta manzili bo'yicha aniqlanadi.

Abonent bu – operator yoki provayder bilan telekommunikatsiya xizmatlarini (mobil va telefon aloqasi, ma'lumotlar uzatish tarmog'i va boshqalar) ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi.

Shahar joylarda joylashgan, lekin qishloq joylarida savdo obyektlariga ega bo'lgan savdo tashkilotlari xizmatlari ushbu savdo obyektlari bo'yicha alohida ajratib ko'rsatiladi.

9-bob. Xalqaro tajribaga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari sektorining muqobil to'plami

67. Axborot iqtisodiyoti bilan bog'liq ma'lumotlarga, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va mazmuni deb ataladigan talablarning tobora ortib borishi, axborot iqtisodiyoti bilan bog'liq kichik guruhlar va chegaralarni sharhlash bo'yicha ko'plab savollarni tug'diradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) AKT sohalari va mazmuni ta'riflarini standartlashtirish bo'yicha yetakchi o'rinni egalladi. Axborot jamiyati ko'rsatkichlari bo'yicha ishchi guruh muqobil xizmat ko'rsatish sohasi yig'indisida keltirilgan qo'shimcha tafsilotlarni qo'llagan holda, ilgari ishlatilgan ta'riflarni ko'rib chiqdi va yangi tavsiyalar ishlab chiqdi.

68. AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami AKT xizmatlari sohasini har tomonlama qamrab olish va tahlil qilish, shuningdek, AKT xizmatlari statistikasining xalqaro taqqoslanishini ta'minlash uchun ishlatiladi.

69. Hali ham AKT xizmatlari uchun sun'iy yo'ldosh hisobvarag'ining xalqaro standartlari mavjud emasligi sababli, AKT xizmatlari sektorining muqobil yig'indisi ko'rsatkichlarini hisoblash tajriba asosida amalga oshiriladi.

70. AKT xizmatlarining muqobil to'plamini shakllantirish BMTning statistika bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan barcha iqtisodiy faoliyatning Xalqaro standart sanoat tasnifida (keyingi o'rinlarda – XSST-4) “AKT sohasi”

ta'rifiga muvofiq amalga oshiriladi va "O'zstandart" agentligining 28.01.2011- yildagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat milliy tasniflagichi 2- tahrir (IFUT-2) bilan taqqoslanadi hamda "Statistical classification of economic activities in the European Community" – NACE Rev.2. xalqaro standartga asoslanadi.

71. AKT xizmatlari sohasining muqobil yig'indisi hajmi xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyati (MST) tomonidan tasdiqlangan mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichiga muvofiq shakllantiriladi. va "O'zstandart" agentligining 2015- yil 19- yanvardagi 05-612- sonli qarori bilan kuchga kirgan, to'rt raqamli darajadagi IFUT-2 bilan o'zaro bog'langan va "Statistical classification of products by activity in the European Economic Community" – CPA 2008. tasniflagichlarni taqqoslash jadvali uslubiy Nizomning 8- ilovasida keltirilgan.

72. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kontent va media sohasida xizmatlar hajmi shakllanmoqda. Ushbu sektor uchun ko'rsatkichlar XSST-4 da keltirilgan tavsiflarga muvofiq tuziladi.

73. Tarkib va media sektorining muqobil yig'indisi hajmi MST bo'yicha IFUT uchun moslashtirilgan xizmatlarning alohida turlari hajmidan shakllanadi, bu esa o'z navbatida XSST-4 bilan taqqoslanadi. Tasniflagichlarni taqqoslash jadvali uslubiy Nizomning 8-ilovasida keltirilgan.

74. AKT xizmatlarining muqobil to'plami, shuningdek, kontent va ommaviy axborot vositalari har chorakda quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) tegishli davr uchun yirik tijorat korxonalari bo'yicha statistika hisoboti;
- b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo'yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;

- v) notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

- g) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini baholash, 4- xizmat (jsh) "Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar uchun so'rovnoma" va 1-AKT (jsh) "Savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bozor xizmatlarini ko'rsatadigan jismoniy shaxslar uchun so'rovnoma" natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

75. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini baholashda, qonun hujjatlariga muvofiq AKT xizmatlari sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar soni (ya'ni, tegishli ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lgan) to'g'risidagi soliq organlari va IT-parklardan olingan ma'lumotlar, shuningdek, "One Million Uzbek Coders" ("Bir million dasturchilar") loyihasi monitoringi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

10-bob. Yakuniy qoidalar

76. Amaldagi uslubiy Nizom asosida hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlardan statistik maqsadlarda respublika hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishidagi mavjud vaziyatni aniqlashda axborot manbai sifatida foydalanish mumkin.

77. Xizmat ko'rsatish sohasi ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar sud-huquqiy nizolarni hal qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, savdo bitimlari to'g'risida qarorlar qabul qilish va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallanmagan.

78. Nashrlar va rasmiy xabarlarda xizmat ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar butun raqamdan so'ng verguldan keyin bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

11. Xorijiy va mahalliy mutaxassislarning tavsiyalari

79. Ushbu uslubiy Nizomni ishlab chiqishda Rossiya Federatsiyasi, Belorusiya, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalarining tajribalari va materiallaridan foydalanildi.

80. Ushbu uslubiy Nizomda xizmat ko'rsatish sohasi statistikasini shakllantirish bo'yicha qo'llaniladigan tushunchalar, ko'rsatkichlar va uslubiy yondashuvlarning ta'riflari xalqaro standartlarga mos keladi. "Xalqaro tajribaga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining muqobil to'plami" bo'limi mazkur uslubiy Nizomga mustaqil bo'lim sifatida kiritilganini alohida ta'kidlash kerak. Ushbu bo'lim axborot iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq statistik ma'lumotlarga talabning oshishi va AKT xizmatlari sohasini har tomonlama qamrab olish hamda tahlil qilishni ta'minlash zarurati, shuningdek, AKT xizmatlari statistikasining xalqaro taqqoslanishi, jumladan, MDHda katta ahamiyatga ega. Ko'rib chiqilayotgan xujjatda qo'llaniladigan AKT xizmatlarining muqobil

to'plamini shakllantirishdagi yondashuvlar barcha iqtisodiy sanoat faoliyatning xalqaro standart tasnifida AKT sektorining ta'rifiga to'liq mos kelib (XSST-4, ISIC, Rev.4), bu to'plangan ma'lumotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo statistika qo'mitasining 2021- yil 23- avgustdagi №4-VS/1-88- sonli xati).

81. Xalqaro standartlarga asoslangan buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish uchun qisqa muddatli ma'lumotlarning sifatini, shu jumladan ularni diskret davrlarga taqsimlash, biznes reyestridan namuna olish, kuzatuv shakllari va namuna olish usullarini takomillashtirish muhimdir (*XVJ eksperti tavsiyalari*).

82. Umuman olganda mazkur uslubiy Nizom, barcha iqtisodiy sanoat faoliyatining xalqaro standart tasnifi (XSST-4, ISIC, Rev.4), Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasnifi (KDYeS red.2, NACE Rev.2), Milliy hisoblar tizimi (MXT 2008) talablariga mos keladi hamda va xizmat ko'rsatish sohasini statistik kuzatishda statistika organlarining mehnat faoliyati davomida foydalanish mumkin (*Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo statistika qo'mitasining 2021- yil 23- avgustdagi №4-VS/1-88-son xati*).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 8- iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742- son qarori. // Milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasi (www.lex.uz), 2020- yil 9- iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 16- iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4752- son qarori. // Milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasi (www.lex.uz), 2020- yil 16- iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 1- maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702- son qarori. // Milliy qonunchilik ma'lumotlar bazasi (www.lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011- yil 7- yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6- son qarori. // "O'zbekiston Respublikasining qonunchilik to'plami", 2011- y., N 1-2, 8- modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 22- oktabrdagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011- yil 7- yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi 6- son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 850- son qarori. // "O'zbekiston Respublikasining qonunchilik to'plami", 2011- y., № 1-2, 8- modda.
6. O'zbekiston Respublikasining 2020- yil 28- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi O'RQ-635 qonuni // (<https://lex.uz/>).
7. Faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MST), "O'zstandart" Agentligining 19.01.2015- y. 05-612- son qarori bilan tasdiqlangan va joriy etilgan, Toshkent 2015- y. // (<https://stat.uz/ru/uslugi-1/statisticheskie-klassifikatory>).
8. Mahsulotlarning (tovarlar va xizmatlarning) model statistik tasniflagichiga tushuntirishlar (MST-2), MDH statistika qo'mitasi, M., 2013- y.
9. Milliy hisoblar tizimim 2008/KYeS, HVJ, IHRT, BMT, JB/Nyu-York 2009- y. (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/>)

10. Xizmatlar sohasi uchun ishlab chiqaruvchilar narx indeksini tayyorlash bo'yicha uslubiy qo'llanma, Yevrostat-IHRT, 2014- y.

11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2016- yil 29- iyundagi 9- son qarori bilan tasdiqlangan "Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha uslubiy Nizom" // <https://lib.stat.uz>.

12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2016- yil 20- iyundagi 6- son qarori bilan tasdiqlangan "Kichik tadbirkorlik subyektlarini tanlanma kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha uslubiy Nizom" <https://lib.stat.uz>.

13. Axborot iqtisodiyoti statistikasini ishlab chiqarish bo'yicha qo'llanma – 2009- y. (qayta ko'rib chiqilgan nashr). // BMT (<https://unctad.org>), Nyu-York va Jeneva, 2014- y.

14. Barcha iqtisodiy faoliyatning xalqaro standart sanoat tasnifi (to'rtinchi qayta ko'rib chiqish). // BMT (<https://unstats.un.org>), Nyu-York, 2009- y.

15. Xizmat turlari kontekstida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlarni shakllantirishning rasmiy statistik metodologiyasi. Rosstat. 2017- y. // <https://gks.ru/>.

16. Aholiga pullik xizmat ko'rsatish statistikasi bo'yicha uslubiy qoidalar. Belstat. 2017- y. // <https://www.belstat.gov.by/>.


17. Tijorat xizmatlari statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish metodikasi. Kazstat. 2016- y. // <https://stat.gov.kz/>.

18. Xizmat statistikasi bo'yicha uslubiy reglament. Qirg'iziston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2011- yil // <http://www.stat.kg/>.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy Nizomga

1- ILOVA

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmini tashkil etilish to'g'risidagi sxemasi



Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
2- ILOVA

**Kichik biznes va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini aniqlash uchun tuzatish
koeffitsiyentini hisoblashning shartli misoli**

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining avvalgi chorakka nisbatan o'zgarishi				Joriy yilning oldingi choragi uchun 4-kb savolnoma bo'yicha xizmat ko'rsatgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni		Kelgusi uch oyda o'z faoliyatini yaxshilash istiqboli bo'lgan kichik biznes va mikrofirmalarni ng ulushi	Tuzatish koeffitsiyent
	(N) y.	(N-1) y.	(N-2) y.	Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'zgarishining o'rtacha geometrik qiymati	jami	shu jumladan kelgusi uch oy davomida o'z faoliyatini takomillashtirish istiqbollari bo'lganlar		
Jami	115,3	114,1	113,5	114,3	037 ⁶	5937	0,98 = 5937 : 6037	1,12=114,3:100 x 0,98

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
'xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
3- ILOVA

**Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan har chorakda
ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini hisoblash misoli**

Shartli misol

	Haqiqiy narxlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
V_{lpr} - o'tgan yil davomida tugatilgan kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	328,5
V_{mpr} - kichik biznes subyektlari tomonidan o'tgan yil davomida ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi	14 470,4
V_{mn} - 4-kb savolnoma tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha muvofiq, umumiy jamlamaga taqsimlangan n chorak uchun ma'lumotlar	2 320,8
V_{ln} - hisobot yilining n choragida tugatilgan kichik korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi	$53,9 = [328,5 : (14\,470,4 - 328,5)] \times 2\,320,8$

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
4- ILOVA

**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmini hisoblashning shartli namunasi**

mln. so'm

	O'tgan yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi,% da	Kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risidagi ma'lumot, (4-kb savolnoma shakli)		Joriy yilning hisobot choragi uchun to'g'rilash koeffitsiyentini hisobga olgan holda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi
		kichik korxona va mikrofirmalarning to'plami bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	to'g'rilash koeffitsiyenti	
A	1	2	3	5
Jami - xizmatlar	100	2 305 828,1	1,12	2 582 527,5
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1,4			36 155,4
Moliyaviy xizmatlar	3,0			77 475,8
Transport xizmatlari	12,2			315 068,3
shu jumladan, avtotransport xizmatlari	1,6			41 320,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1,5			38 737,9
Savdo xizmatlari	38,3			989 108,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,2			56 815,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,4			10 330,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,2			30 990,3
Ijara va prokat xizmatlari	1,2			30 990,3

	O'tgan yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi,% da	Kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risidagi ma'lumot, (4-kb savolnoma shakli)		Joriy yilning hisobot choragi uchun to'g'rilash koeffitsiyentini hisobga olgan holda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi
		kichik korxona va mikrofirmalarning to'plami bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	to'g'rilash koeffitsiyenti	
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	15,4			397 709,2
Shaxsiy xizmatlar	2,7			69 728,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,4			10 330,1
Boshqa xizmatlar	20,1			519 088,0

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
5- ILOVA

**Yuridik maqomga ega bo'lmagan xizmat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar sonini
hisoblashning shartli namunasi (tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra)**

kishi

Xizmat turi nomi	Ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar soni, Liz	Kuzatuv o'tkazilgan jismoniy shaxslar soni			Ruxsatnomaga ega bo'lganlarni jami kuzatilganlar- dagi ulushi % da, Wiz	Jismoniy shaxslarning hisoblangan soni	
		Jami	Ruxsatno- maga ega bo'lgan	Ruxsatno- maga ega bo'lmagan		Jami, Lf	shu jumladan, ro'yxatdan o'tmaganlar, Lio
A	1	2	3	4	5	6	7
	16573	7356	4821	2535	65,5= 4821/7356*100	25302= 16573/65,5*100	8729= 25302-16573

Yuridik maqomga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini hisoblashning shartli namunasi

Xizmat turi nomi	Kuzatuv ma'lumotlariga asosan o'rtacha bir oylik ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'mda	shu jumladan		Kuzatuv ma'lumotlariga asosan 1 kishiga to'g'ri keluvchi o'rtacha bir oylik ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'mda	shu jumladan		Kuzatuv ma'lumotlariga asosan jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan bir oylik xizmatlar hajmini baholash, ming so'mda	shu jumladan	
		Ruxsatno- maga ega bo'lgan	Ruxsatno- maga ega bo'lmagan		Ruxsatno- maga ega bo'lgan, Viz	Ruxsatno- maga ega bo'lmagan, Vio		Ruxsatno- maga ega bo'lgan, Viz = Vsiz* Liz	Ruxsatno- maga ega bo'lmagan, Vio = Vsio*Lio
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
	10181434,3	8190719,4	1990714,9	1384,099 = 10181434,3 / 7356	1698,967 = 8190719,4 / 4821	785,292 = 1990714,9 / 2535	35011794,0 = 28156980,1+ 6854813,9	28156980,1 = 1698,967 *16573	6854813,9 = 785,292* 8729

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
6-ILOVA

Xizmat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining minimal namunaviy hajmini amaliy hisoblash uchun ushbu ko'rsatkichlarning parametrlaridan quyidagi o'lchamlarda foydalanish mumkin:

DELTA - bu 2 dan 5 ballgacha bo'lgan namunaning vakillik ruxsat etilgan maksimal xatosi. Taxminiy hisob - kitobda *DELTA* 2,3 deb qabul qilinadi;

$t - F(t)$ belgilangan ehtimollik chegaralariga qarab, namunaning vakillikdagi xatoning ko'pligi. Amaliy hisob -kitoblar uchun $F(t)$ miqdorida ishlatilib, 0,95 (95%), bu 1,96 ga teng t qiymatiga to'g'ri keladi (ya'ni, namuna vakillikdagi deyarli ikki barobar xato);

$w (1 - w)$ - taqsimotning o'zgaruvchanlik darajasi, bu erda w - namunadagi o'rganilayotgan belgining taqsimlanishining namunaviy ulushi. Tadqiqot boshlanishidan oldin w qiymati noma'lum bo'lganligi sababli, uni 0,5 miqdorida olish mumkin, bu xususiyatning tarqalishining o'zgaruvchanlik darajasining mumkin bo'lgan maksimal qiymatini olish imkonini beradi [0,25 = 0,5 (1 - 0,5)] va shuning uchun namuna hajmining eng katta qiymati, qolgan hamma narsa teng.

$$p = \frac{t(2)}{w(1-w)} \frac{DEL}{TA} \quad N_i = \frac{1,96 *}{0,5(1-0,5)} \frac{*}{2,3} 44980 =$$

$$9582 \text{ ishi} \quad 21,3 \% \left(\frac{95}{82 * 100} \right) \frac{44}{980} .$$

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
7- ILOVA

**Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajm indekslarini joriy va
taqqoslama narxlarda aniqlashning shartli namunasi**

Ko'rsatkichlar nomi	Hisob
V_{op} – hisobot davrida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	23936,7
V_{bp} – bazis davrida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	20417,5
I_{vt} – joriy narxlarda xizmatlar qiymat hajmi indeksi	$117,2 = \frac{23936,7}{20417,5} * 100$
I – xizmatlar bo'yicha narx va tariflar indeksi	104,4
V_{os} – hisobot davridagi xizmatlarning taqqoslama narxlardagi hajmi	$22927,9 = \frac{23936,7}{4,4} * 100$
I_{vs} – taqqoslama narxlarda xizmatlar hajmini qiymat indeksi	$112,3 = \frac{22927,9}{20417,5} * 100$

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
8- ILOVA

**Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida ustunlikka ega
xizmatlar RO'YXATI**

1. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari.
2. Moliyaviy xizmatlar.
3. Transport xizmatlari.
 - 3.1 shu jumladan, avtotransport xizmatlari.
4. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar.
5. Savdo xizmatlari.
6. Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar.
7. Ta'lim sohasidagi xizmatlar.
8. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar.
9. Ijara va prokat xizmatlari.
10. Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar.
11. Shaxsiy xizmatlar.
12. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar
va tahlil sohasidagi xizmatlar.
13. Boshqa xizmatlar.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan),
shu jumladan, qishloq joylarida ko'rsatilgan
xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha
uslubiy Nizomga
9- ILOVA

Tasniflagichlarning taqqoslash jadvali

AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami					
XSST-4		IFUT-2		MST	
Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Xizmatlar turlari kodlari	Xizmatlar turlari nomlari
5820	Dasturiy ta'minotni nashr qilish	582	Dasturiy ta'minotni chiqarish	582	Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar
61	Aloqa	61	Aloqa	61	Telekommunikatsiya xizmatlari
6110	Simli aloqa sohasidagi faoliyat	6110	Simli aloqa xizmatlari ko'rsatish	6110	Simli telekommunikatsiya xizmatlari
6120	Simsiz aloqa sohasidagi faoliyat	6120	Simsiz aloqa xizmatlari ko'rsatish	6120	Simsiz telekommunikatsiya xizmatlari
6130	Sun'iy yo'ldosh aloqasi sohasidagi faoliyat	6130	Yo'ldosh vositasidagi aloqa xizmatlari ko'rsatish	6130	Yo'ldosh aloqasi xizmatlari
6190	Aloqa xizmatlari sohasidagi boshqa faoliyat	6190	Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatish	6190	Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari
62	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, kompyuter bo'yicha konsalting va boshqa tegishli faoliyat	62	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar	62	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar

AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami					
XSST-4		IFUT-2		MST	
Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Xizmatlar turlari kodlari	Xizmatlar turlari nomlari
6201	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo'yicha faoliyat	6201	Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat	6201	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar
6202	Kompyuter konsalting va kompyuter uskunalarini boshqarish faoliyati	6202	Kompyuter texnologiyalari sohasidagi maslahat xizmatlari	6202	Kompyuter texnologiyalari sohasida maslahat berish xizmatlari
		6203	Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha faoliyat	6203	Kompyuter uskunalarini boshqarish bo'yicha xizmatlar
6209	Axborot texnologiyalari va kompyuter texnikasiga xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqa faoliyat	6209	Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	6209	Axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlari sohasidagi boshqa xizmatlar
631	Ma'lumotlarni qayta ishlash, xosting va tegishli tadbirlar; web-portallar	631	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, Web-portallar	631	Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar
6311	Ma'lumotlarni qayta ishlash, xosting va tegishli boshqa faoliyat	6311	Ma'lumotlarni joylashtirish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	6311	Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar
6312	Web-portallar	6312	Web-portallar	6312	Web-portallarning ma'lumotlar bazasi

AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami					
XSST-4		IFUT-2		MST	
Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Xizmatlar turlari kodlari	Xizmatlar turlari nomlari
951	Kompyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash	951	Kompyuterlar va aloqa uskunalari ta'mirlash	951	Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
9511	Kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash	9511	Kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash	9511	Kompyuter va periferik uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
9512	Aloqa uskunalarini ta'mirlash	9512	Kommunikatsiya uskunalarini ta'mirlash	9512	Kommunikatsiya uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar
Ommaviy axborot vositalari va kontent sektorining muqobil to'plami					
581	Kitoblar, davriy nashrlarni nashr etish va boshqa nashriyot faoliyati	581	Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish va nashriyotchilik faoliyatining boshqa turlari	581	Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa nashriyotchilik xizmatlari
5811	Kitoblar nashr qilish	5811	Kitoblar nashr qilish	5811	Kitoblar nashr qilish bo'yicha xizmatlar
5812	Ma'lumotnomalar va manzillar ro'yxatini nashr etish	5812	Ma'lumotnoma va ro'yxatlar nashr qilish	5812	Ma'lumotnomalar va adresatlar (oluvchilar) ro'yxatini nashr qilish
5813	Gazeta, jurnal va boshqa davriy nashrlarni chop etish	5813	Gazetalar nashr qilish	5813	Gazetalar nashr qilish bo'yicha xizmatlar
		5814	Jurnallar va davriy nashrlar nashr qilish	5814	Jurnallar va davriy nashrlarni nashr qilish bo'yicha xizmatlar
5819	Boshqa nashriyot	5819	Nashriyotchilik faoliyatining	5819	Boshqa nashriyotchilik

AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami					
XSST-4		IFUT-2		MST	
Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Xizmatlar turlari kodlari	Xizmatlar turlari nomlari
	faoliyati		boshqa turlari		xizmatlari
591	Kinofilmlar, videofilmlar va televizion dasturlar bilan bog'liq faoliyat	591	Kino- video-filmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish	591	Kino-, videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar
5911	Film, video va televizion dasturlarni ishlab chiqarish	5911	Kino-videofilmlar va televizion dasturlar ishlab chiqarish	5911	Kino-, videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar
5912	Kinofilmlar, video prodyuserlar va televizion dasturlar bilan bog'liq keyingi bosqich faoliyati	5912	Kino-videofilmlar va televizion dasturlarni ishlab chiqarishdan keyingi bosqich	5912	Kino-, videofilmlar va televideniya dasturlari tayyorlashning ishlab chiqarishdan keyingi bosqichi xizmatlari
5913	Kinofilmlar, video mahsulotlar va televizion dasturlarni tarqatish	5913	Kinofilmlar, video va televizion dasturlarni tarqatish	5913	Kino-, videofilmlar va televideniya dasturlarini tarqatish bo'yicha xizmatlar
5914	Kinofilmlarni namoyish qilish	5914	Kinofilmlar namoyish qilish	5914	Kinofilmlarni namoyish qilish bo'yicha xizmatlar
592	Ovoz yozish va musiqiy asarlarni nashr etish sohasidagi faoliyat	592	Fonogrammalar va musiqali yozuvlarni nashr qilish bo'yicha faoliyat	592	Tovush yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar

AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami					
XSST-4		IFUT-2		MST	
Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Faoliyat turlari kodlari	Faoliyat turlari nomlari	Xizmatlar turlari kodlari	Xizmatlar turlari nomlari
60	Dasturlash va radio va televizion eshittirishlar	60	Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish	60	Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar
6010	Radioeshittirish	6010	Radioeshittirish	6010	Radioeshittirish xizmatlari
6020	Televizion dasturlar yaratish va eshittirish	6020	Televizion dasturlarni yaratish va namoyish qilish bo'yicha faoliyat	6020	Teledasturlar tuzish va teleko'rsatuvlar bo'yicha xizmatlar; teleko'rsatuvlarning asl nusxalari
639	Axborot xizmatlari sohasidagi boshqa faoliyat turlari	639	Axborot xizmatlarining boshqa turlari	639	Boshqa axborot xizmatlari
6391	Axborot agentligi faoliyati	6391	Axborot agentliklari faoliyati	6391	Axborot agentliklarining xizmatlari
6399	Boshqa joylarda tasniflanmagan axborot xizmatlari sohasidagi boshqa faoliyat	6399	Boshqa toifalarga kiritilmagan, axborot xizmati ko'rsatish bo'yicha boshqa faoliyat	6399	Boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa axborot xizmatlari